



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 98 sahifa,
3-oktyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking	16
<i>Gulnar Atakhanova Orinbaevna</i>	
Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level.....	20
<i>Amankosova Dinara Gabitovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari....	24
<i>Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna</i>	
Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach	28
<i>Bannayev Qosimjon</i>	
Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati	31
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Motor alaliyanning nonutqiy simptomatikasi	34
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari	38
<i>Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish.....	41
<i>Jabborova Umida</i>	
Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	45
<i>Xayrullayev Asliddin Isatullayevich</i>	
Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida.....	51
<i>Karimov N. M.</i>	
Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni	54
<i>Melikova Elnora Shuxratovna</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli.....	58
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	62
<i>Nishonova Dilafuz</i>	
Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students	66
<i>Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna</i>	
Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	70
<i>O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.....	73
<i>Rasulev Bobirjan Atxamovich</i>	
Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari	78
<i>Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna</i>	
Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari.....	84
<i>Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari	88
<i>Xalilova Shahnoza</i>	
Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati.....	92
<i>Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi</i>	

MOTOR ALALIYANING NONUTQIY SIMPTOMATIKASI

Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti,
Defektologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada alaliyaga chalingan bolalarda kuzatiladigan nutqiy va nutqdan tashqari simptomatika yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, motor alaliya nafaqat nutq faoliyatining kechikishi yoki buzilishi bilan, balki motorika, xotira, diqqat, tafakkur kabi oliy psixik funksiyalarning yetarli shakllanmaganligi bilan ham xarakterlanadi. Bolalarda qo'l va barmoqlar mayda motorikasining sustligi, umumiy motor noshudligi, xotira jarayonlarining o'ziga xosligi, emotsional-irodaviy sohada qiyinchiliklar aniqlanadi. Shuningdek, differensial tashxisda alaliyani aqliy zaiflikdan farqlash dolzarb masala sifatida ta'kidlanadi. Maqolada nutqiy rivojlanmaganlik darajalari, motor alaliya simptomatik belgilarining xilma-xilligi va ular bola intellektual hamda psixik rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: motor alaliya, nutqiy rivojlanmaganlik, psixik funksiyalar, differensial tashxis, motorika, intellektual rivojlanish.

Abstract: This article highlights the speech and non-speech symptomatology observed in children with alalia. Research indicates that motor alalia is characterized not only by delayed or impaired speech activity, but also by insufficient development of higher mental functions such as motor skills, memory, attention, and thinking. Children with motor alalia often demonstrate poor fine motor coordination of the hands and fingers, general motor clumsiness, peculiarities in memory processes, and difficulties in the emotional-volitional sphere. Furthermore, the article emphasizes the importance of differentiating alalia from intellectual disability. The study analyzes the levels of speech underdevelopment, the diversity of symptomatic manifestations of motor alalia, and their impact on the child's intellectual and psychological development.

Key words: motor alalia, speech underdevelopment, mental functions, differential diagnosis, motor skills, intellectual development.

Аннотация: В данной статье освещается речевая и неречевая симптоматика, наблюдаемая у детей с алалией. Исследования показывают, что моторная алалия характеризуется не только задержкой или нарушением речевой деятельности, но и недостаточной сформированностью высших психических функций, таких как моторика, память, внимание и мышление. У детей выявляется слабое развитие мелкой моторики кистей и пальцев, общая моторная неуклюжесть, своеобразие процессов памяти, а также трудности в эмоционально-волевой сфере. Кроме того, в работе подчеркивается актуальность дифференциальной диагностики алалии и умственной отсталости. В статье анализируются уровни недоразвития речи, разнообразие симптоматических проявлений моторной алалии и их влияние на интеллектуальное и психическое развитие ребенка.

Ключевые слова: моторная алалия, недоразвитие речи, психические функции, дифференциальная диагностика, моторика, интеллектуальное развитие.

KIRISH

Alaliyaga chalingan bolalarda faqat nutq faoliyatining emas, balki qator motor va psixik funksiyalarning ham yetarlicha shakllanmaganligi aniqlanadi. Motor alaliyada nevrologik simptomatika turlicha darajada namoyon bo'ladi: miyadagi disfunktsiyaning yengil, noaniq belgilari va markaziy asab tizimining ayrim zararlanish alomatlariidan tortib, og'ir nevrologik buzilishlargacha (parezlar), ayniqsa piramidal va ekstrapiramidal tizimlarda. N.N. Traugott ma'lumotlariga ko'ra, og'iz-apraksiyasi alaliya tashxisi bo'lgan bolalarning 10 foizida uchraydi. Ularda jismoniy zaiflik, somatik sustlik kuzatiladi. Bolalarda umumiy motorika buzilishi, qo'pol harakatlar, muvofiglashuvning buzilishi, harakatlarning sekinligi yoki tormozlanmaganligi namoyon bo'ladi. Motor faollikning pasayishi, yetarli ritmik harakatning yo'qligi, dinamik va statik muvozanatning buzilishi aniqlanadi (bir oyog'ida turib yoki sakrab turolmaslik, oyoq uchida va tovonda yurishda qiynalish, to'pni uloqtirish va tutib olish, taxta ustida yurishda qiyinchilik va h.k.). Ayniqsa, qo'l barmoqlarining mayda motorikasi zaif rivojlangan bo'ladi.



Tadqiqotlarda shuningdek, motor alaliya bilan og'riqan bolalarda chapqo'llik va ambidekstriya ko'pligi qayd etilgan. Ba'zi bolalar tormozlanmagan, impulsiv, faoliyatda tartibsiz va giperaktiv bo'lsa, boshqalari sust, o'zini namoyon qila olmaydigan bo'lib chiqadi. Bolalarda ko'plab oliy psixik funksiyalar (xotira, diqqat, tafakkur va boshqalar)ning yetarlicha rivojlanmaganligi aniqlanadi, ayniqsa ixtiyoriylik va anglash darajasida. Alaliyada xotira xususiyatlari ham o'ziga xos bo'ladi: xotira hajmining torayishi, hosil bo'lgan izlarning tez so'nishi, so'zli ta'sirlarni ushlab qolishning cheklanganligi va hokazo. Ayniqsa, og'zaki xotira zarar ko'radi – ixtiyoriy, vositali, so'z, jumla, yaxlit matnlarni eslab qolishga oid xotira. Og'zaki xotira harakatli, obrazli, emotsional xotiradan farqli ravishda inson uchun xos bo'lgan xotira turi hisoblanadi. Vizual qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lganda bolalar materialni osonroq eslab qoladilar, nutq-ko'rish xotirasi esa ko'proq rivojlangan bo'ladi. So'z tanlashdagi qiyinchiliklar, so'zlarni unutish va ularni qayta tiklashdagi muammolar bolaning ixtiyoriy ifoda imkoniyatlarini keskin cheklaydi. Syujetli voqealarni esga olish, ketma-ketlikni tiklash jarayonida faol izlanishning pasayishi, kuzatuvchanlikning sustligi kuzatiladi: bola go'yoki suratga qarab o'tadi, lekin muhim tafsilotlarni ilg'amaydi. Ba'zi hollarda ularda shaxsning patologik sifatleri, nevrotik xarakter xususiyatlari shakllanadi.

Nutq kamchiligiga javoban bolalarda tortinchoqlik, negativizm, o'ziga ishonchsizlik, ichki bezovtalik, ortiqcha jahldorlik, xafag'onlik, yig'loqlilik va shunga o'xshash belgilar paydo bo'ladi. Ba'zan bolalar nutqni faqat emotsional vaziyatlarda ishlatadilar. Xato qilish va ustidan kulish qo'rquvi ularni nutqiy muloqotdan voz kechishga, imo-ishoralardan ko'proq foydalanishga olib keladi. Bolaning shaxsiy xususiyatlari markaziy asab tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog'liq bo'lib, nutqiy nuqson uni bolalar jamoasidan chetda qoldiradi va yosh o'tishi bilan psixikasiga tobora ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatadi. Gnozis, praksis, fazoviy va vaqtinchalik sintezning nutq orqali shakllanishidagi qiyinchiliklar, diqqat, idrok, samarali faoliyatning cheklanganligi va barqaror emasligi kuzatiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Alaliya tashxisi bo'lgan bolalarda bilish faoliyatining predmet-amaliy jarayonlarida o'ziga xos xususiyatlar kuzatiladi. Faoliyat usullarining umumlashtirish darajasi, mazmuni va bajarilish darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. I. T. Vlasenko va V. V. Yurtaykin (1981) bunday bolalarning maktab dasturini o'zlashtirishda orqada qolishini ta'kidlarkan, ularda umumlashtirish, rejalashtirish va nutqning nazoratlovchi funksiyasi shakllanmaganligini qayd etadi. Alaliya tashxisi bo'lgan bolalar intellektiga oid masala tadqiqotchilar tomonidan turlicha hal qilinadi. M. V. Bogdanov-Berezovskiy (1909), R. A. Belova-David (1972) va boshqalar fikricha, bunday bolalarda tafakkur avvaldan buzilgan bo'lib, bu hol til qobiliyatining rivojlanmaganligiga olib keladi. M. V. Bogdanov-Berezovskiy bolalar afaziyasi (alaliya) nafaqat miyaning muayyan sohaları zararlanishi va natijada nutq funksiyasining buzilishi bilan bog'liq, balki bu buzilishlar intellektual sohada ham o'z aksini topishini ta'kidlagan.

N. N. Traugott (1940, 1965), R. E. Levina (1951), M. Ye. Xvatsev, S. S. Lyapidevskiy, N. A. Nikashina va boshqalar esa bolalar intellekti nutq holatiga qarab ikkilamchi o'zgarishga uchraydi, deb ta'kidlaydilar, biroq ular til rivojlanmaganlik darajasi va intellekt darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni aniqlamagan. Bunday bolalarda bilishga qiziqish, predmet-amaliy va mehnat faoliyati yetarli darajada rivojlangan bo'lsa-da, tafakkur jarayonlari tezligi sekinlashgan, tushunchalar shakllanmagan bo'ladi. Alaliyada nutqiy tafakkur o'ziga xos shakllanadi, chunki bunda to'liq til umumlashtirishlari zarur. Bunday bolalarda mantiqiy operatsiyalarning qashshoqligi, ramziy ifodalash, umumlashtirish va abstraksiyalash qobiliyatining pasayishi, og'iz-apraksiyasi va dinamik praksisning buzilishi, akustik gnozisdagi nuqsonlar kuzatiladi. Demak, nutq ishtirokini talab qiladigan intellektual operatsiyalar pasaygan bo'ladi. Umumlashtirish darajasining pasayishi o'yin faoliyatida, rolli o'yinlar, hamkorlikdagi (ayniqsa, syujetli-rolli) o'yin ko'nikmalarining shakllanmaganligida namoyon bo'ladi.

Impulsivlik, faoliyatdagi tartibsizlik, passivlik, tez charchash, predmet-amaliy faoliyatdagi o'ziga xos xususiyatlar shunda ko'rinadiki, bolalarga topshiriq og'zaki emas, balki ko'rgazmali shaklda berilganda bajarish osonroq bo'ladi. Bolalarda fazoviy-vaqtinchalik munosabatlarni shakllantirishda qiyinchiliklar kuzatiladi, predmetlarning vaqt va fazoviy xususiyatlarini idrok etish va ularni so'z bilan ifodalash buzilgan bo'ladi; xotira, idrok, tafakkur operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish)da nuqsonlar mavjud bo'lib, mantiqiy-abstrakt tafakkur yetarlicha shakllanmagan bo'ladi, biroq bolalar berilgan mulohaza usulini aniq saqlaydilar, ishda yordamdan foydalanadilar.

Bir qator tadqiqotchilar (N. M. Umanskaya, L. R. Davidovich) alaliya tashxisi bo'lgan bolalar intellektining birlamchi saqlanganligini, ijobiy dinamikani, ijtimoiy-mehnatga moslashuv imkoniyatlarini ta'kidlaydilar. Bolalarda psixofizik tormozlanmaganlik yoki, aksincha, tormozlanganlik, kuzatuvchanlikning pasayishi, motivatsion hamda emotsional-irodaviy sohaning yetarli emasligi qayd etiladi. Bolalar topshiriqni bajarishga uzoq vaqt kirishadilar, muammoli vaziyatni yuzaki baholaydilar, qiziqishlari beqaror, intellektual passiv bo'ladilar, nutqiy tajribaning yo'qligi va bilish faoliyatining cheklanganligi bilan bog'liq bilimlardagi bo'shliqlar, o'ziga xos xulq-atvor va boshqa bir qator xususiyatlar namoyon bo'ladi. Nutqiy faollikning kamligi umumiy tushunchalar zahirasini cheklaydi. Biroq ko'p hollarda alaliya tashxisi bo'lgan bolalarda oliy nerv faoliyatining o'ziga xos manzarasida

intellektual buzilishlar ikkilamchi xarakterga ega bo'ladi. Nutqiy jarayon va hodisalar har doim insonning psixik faoliyatining tizimli tuzilishi haqidagi qarashlar kontekstida ko'rib chiqiladi. Bu faoliyatda bilish, irodaviy va motivatsion jarayonlar bir-biridan ajralmas birlikda bo'ladi. Bolaning intellektual rivojlanishi ma'lum darajada nutq holati bilan chegaralanadi. Ammo nutqiy buzilishning, xususan, alaliyaning mavjudligi aqliy zaiflikni anglatmaydi. Nutqning nuqsonli bo'lishi yoki yo'qligi bolada psixik rivojlanishning qator xususiyatlarini belgilaydi, psixik jarayonlarning borishiga ta'sir ko'rsatadi va ularni o'ziga xos qiladi. Alaliya tashxisi bo'lgan bolalarda nutq atrof-muhitni bilishning yetakchi vositasi bo'la olmaydi, shu sababli intellektning normal rivojlanishi ham to'liq ta'minlanmaydi. Nutqning rivojlanmaganligi bilish faoliyatining to'laqonli shakllanishini sekinlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Alaliya tashxisi bo'lgan bolalarning tafakkur holatini differensial baholash lozim, chunki nutqiy rivojlanmaganlikning turli variantlari uchraydi va ular intellektual yetishmovchilikning turli darajalari bilan namoyon bo'ladi: yengil ikkilamchi aqliy rivojlanishdan ortda qolishdan tortib, aqliy zaiflikkacha. Alaliya tashxisi bo'lgan bolalarni aqli zaif bolalardan differensial tashxis qilish juda murakkab, ayniqsa bolaning erta yoshidagi bir martalik tekshiruvda. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, alaliya tashxisi bo'lgan bolalarda bilimlar, tasavvurlar zaxirasi ko'proq, imo-ishora, mimika, nutqdan tashqari vaziyatni, ko'rsatmalarni tushunish, atrofga moslashish malakasi rivojlangan bo'ladi. Ular vaziyatdagi o'zgarishlarni hisobga oladilar, o'z nutqlariga tanqidiy munosabatda bo'ladilar, nuqsonidan tashvishlanadilar va aqli zaif bolalarga qaraganda ishda yordamni yaxshiroq qabul qiladilar. N. I. Jinkin fikricha, oligofreniya va alaliya chegarasida tafakkur va nutqning o'zaro munosabatida muammo yotadi. Nutqiy og'ir buzilishlar natijalarini, hatto sezilarli somatik nuqsonlar mavjud bo'lganda ham, aqliy zaiflik sifatida baholash mumkin emas (N. I. Jinkin, 1972).

TAHLIL VA NATIJALAR

Alaliyada sindromning xarakteri turli omillar majmui bilan belgilanadi: nutqning rivojlanmaganlik darajasi, jarayonning tabiati va lokalizatsiyasi, bolaning umumiy holati, yoshi, oliy nerv faoliyati tipi, intellekt darajasi, tibbiy-pedagogik ta'sir tizimi. Har qanday holatda ham alaliya mavjudligida muloqot ko'nikmalarining shakllanmaganligi, nutqiy rivojlanishdagi bo'shliqlar, nutqiy va nutqdan tashqari faoliyat buzilishlari kuzatiladi. Turli tadqiqotchilar alaliyaning og'irlik darajalarini turlicha tasniflaydilar. R. Ye. Levina nutqiy rivojlanmaganlikning 3 darajasini ajratadi:

- ijtimoiy qo'llaniladigan nutqning yo'qligi;
- ijtimoiy qo'llaniladigan nutqning boshlang'ich shakllari;
- butun nutq tizimida rivojlanmaganlik elementlari mavjud bo'lgan kengaytirilgan nutq.

N. N. Traugott va L. V. Melexova 4 bosqichni ajratadilar, O. V. Pravdina ham 4 bosqichni ajratadi, biroq ular mazmun jihatdan boshqacha, ammo prinsipial tafovutlar mavjud emas. O. V. Pravdina bolada birinchi gapning paydo bo'lishini alohida davr sifatida ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Yosh va intellekt darajasi hech qachon nutq rivojlanish darajasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmaydi: katta yoshdagi bola ham yomonroq nutqqa ega bo'lishi mumkin. Darajalar yig'indisi har bir bolaning nutq rivojlanish yo'lini shartli tarzda ko'rsatadi. Darajalarga bo'lish har doim ham aniq emas, chunki ular orasida qat'iy chegaralar yo'q, ba'zida bolaning nutqini qaysi darajaga kiritish mumkinligi faqat taxminan belgilanadi. To'liq nutqsiz bolalar kam uchraydi, ko'pincha turli darajada nutqiy rivojlanmaganlik hollari kuzatiladi. Motor alaliyada nutq rivojlanishining aniq bosqichlarga bo'linishi yo'q: nutqning paydo bo'lishi kechikadi, ayrim komponentlarning shakllanishi nomutanosib bo'ladi, xatolar uzoq vaqt saqlanib qoladi. Nutqning spontan rivojlanishida xatolarning ko'pligi va turfa xilligi alaliyaning muhim belgilaridan biridir. Rivojlanishdagi og'ishlar dastlabki yoshdanoq kuzatiladi: umuman bo'lmaydi yoki nihoyatda bir xil, kambag'al bo'ladi. Birinchi so'zlar va gaplar sezilarli kechikish bilan paydo bo'ladi va nutq rivojlanishining barcha bosqichlarida nutqning barcha tomonlarida buzilishlar aniqlanadi.

Alaliya tashxisi bo'lgan bolalarda nutq rivojlanish jarayonida ma'lum ijobiy dinamika kuzatiladi: ular nutq holati bo'yicha past darajadan yuqoriroq darajaga o'tadilar, ayrim nutqiy ko'nikma va malakalarni egallaydilar, so'zlamaydigan bolalar asta-sekin nutqiy faoliyatni egallay boshlaydilar, biroq nutqi rivojlanmagan bolalar bo'lib qoladilar. Juda sekin, ammo izchil bo'lgan bu rivojlanish jarayonida bolalarda deyarli spontan kompensatsiyaga berilmaydigan va maqsadli korreksiya yordamida ham qiyinchilik bilan bartaraf etiladigan nuqsonlar aniqlanadi.

Ko'pchilik bolalarda alaliyaning barcha shakllariga xos umumiy nuqsonlar mavjud bo'ladi: so'z ma'nolari tizimining shakllanmaganligi, grammatik strukturalashdagi nuqsonlar, semantik nuqsonlar. Bolalarda nafaqat alohida gaplar, balki bog'langan nutqning ham struktural-semantik shakllanishi buziladi. Maktab ta'limi jarayo-



nida yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda ko'plab qiyinchiliklar yuzaga keladi, nutqiy tajribaning kamligi va til umumlashtirishlarining shakllanmaganligi sababli ularda savodxonlik va grammatika o'rganishga tayyorgarlik shakllanmaydi. Motor alaliya uchun xos umumiy nuqsonlar bilan bir qatorda, uning ayrim shakliga xos belgilar ham kuzatiladi. Aynan shu nuqsonlar buzilish yadrosini tashkil etadi, biroq ular nutq rivojlanishining dastlabki bosqichlarida darhol aniqlanmaydi, chunki ular ikkilamchi buzilishlar ta'sirida yashirin qoladi.

XULOSA

Motor alaliya bolaning nutqiy rivojlanishini murakkablashtiribgina qolmay, balki psixik faoliyatining boshqa sohalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqdagi nuqsonlar intellektual jarayonlarda ikkilamchi buzilishlarga sabab bo'lishi mumkin, ammo ular aqliy zaiflikni bildiruvchi asosiy mezon sifatida qaralmasligi lozim. Shuningdek, alaliya tashxisi bo'lgan bolalarda psixik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari (xotira, diqqat, idrok, tafakkurdagi cheklanishlar) mavjud bo'lib, ular maxsus pedagogik va logopedik yondashuv orqali korrektsiyalashni talab etadi. Nutq rivojlanishining bosqichlari turlicha kechsa-da, maqsadli logopedik yordam orqali ijobiy dinamikaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Богданов-Березовский М. В. (1909). Очерки детской афазии. Москва.
2. Белова-Давид Р. А. (1972). К вопросу о влиянии речи на интеллектуальное развитие детей с алалией. Ленинград.
3. Трауготт Н. Н. (1940–1965). Исследования по проблемам детской речи. Москва.
4. Левина Р. Е. (1951). Недостаточность речи у детей и пути её преодоления. Москва.
5. Хвацев М. Е. (1972). Психология речи и её нарушений. Москва.
6. Ляпидевский С. С., Никашина Н. А. (1970). Развитие речи у детей с нарушениями. Ленинград.
7. Власенко И. Т., Юртайкин В. В. (1981). Особенности обучения детей с алалией в школе. Москва.
8. Правдина О. В. (1978). Этапы формирования речи у детей с алалией. Ленинград.
9. Уманская Н. М., Давидович Л. Р. (1985). Интеллектуальное развитие детей с речевыми нарушениями. Москва.
10. Жинкин Н. И. (1972). Речь как проводник информации. Москва.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.